

IBRAT ADABIY MEROSINING QO'LYOZMA, TOSHBOSMA VA NASHRIY MANBALARI XUSUSIDA

Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna,

University of Business and Science, til va
adabiyot ta'limi kafedrasi dotsenti, filologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ozodaxonb@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shoir Is'hoqxon to'ra Ibrat asarlarining qo'lyozma va toshbosma nusxalari matniy tadqiqi va ularning janr xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Shoir asarlarining mazmun-mohiyati hamda bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: olim, adib, shoir, devon, bayoz, qo'lyozma, toshbosma, nashriy manba, inventar, kolofon, xattot, sahhof, zullisonayn.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены сведения о литературных источниках Ибрат. Подчеркнуты смысл и значение произведений поэта сегодня.

Ключевые слова: учёный, писатель, поэт, диван, баяз, рукопись, литография, издательский источник, описание, колофоны, каллиграф, писец, зуллисонайн.

ABOUT THE MANUSCRIPT, LITHOGRAPH, AND PUBLISHED SOURCES OF IBRAR'S WORKS

ABSTRACT

This article provides information about the literary sources of Ibrat. The meaning and importance of the poet's works today are highlighted.

Key words: scholar, writer, poet, divan, bayaz, manuscript, lithograph, publishing source, inventory, colophon, calligrapher, scribe, zullisonayn.

KIRISH

O'zbek xalqining adabiy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun ma'nnaviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Mustaqillik sharofati bilan qadriyatalrimiz tiklandi, o'zligimizni anglay boshladik. Ajdodlarimizning nodir asarlarini o'rghanish, haqqoniy tadqiq etish imkoniyati tug'ildi. Adabiyotimiz namoyandalarining hali o'rganilmagan, olim-u fuzalolar nazaridan chetda qolgan jihatlari ko'p.

XX asr boshlari o‘ziga xos ijtimoiy ziddiyatlarga boyligi, murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu davrda Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari maorif va madaniyatni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shdilar.

XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari Nodim Namangoniy, Hayrat To‘raqo‘rg‘oniy, Mulla Yo‘ldosh Xilvatiy, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda, Yo‘ldoshxo‘ja Dog‘iy, Dadaxon qori Suhayliy kabi shoirlarimiz faoliyati, adabiy merosi milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti rivojida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ushbu shoirlarimizning amaldagi nashr etilgan kitoblari, shuningdek, “Oyna” jurnali, “Turkiston viloyatining gazeti” (“TVG”), “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” kabi vaqtli matbuot sahifalarida e’lon qilgan maqolalari, O‘zRFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan qo‘lyozma va toshbosma asarlari hamda ayrim tazkira va bayozlardagi Namangan adabiy harakatchiligi manbalari o‘z ilmiy tadqiqini topishga mushtoq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Is’hoqxon Ibrat ijodi bir necha qo‘lyozma va nashriy manbalarda saqlanib qolgan. Ushbu tadqiqotda shoirning quyidagi ilmiy-adabiy manbalari tahlil doirasiga tortildi:

1. Lug‘ati sitta alsina. – T.: Ilin tipografiysi, 1901-yil. Ibratning “Lug‘ati sitta alsina” (Olti tilli lug‘at) asari XIX asrning 90-yillarida yozib tugatilgan bo‘lsada, asar 1901-yil Toshkentdagi Ilin tipografiyasida nashrdan chiqdi. Lug‘at 53 sahifadan iborat. “Lug‘ati sitta alsina”ning toshbosma nusxasi hozirgi kunda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanadi. Ushbu lug‘atni nashrga tayyorlab, chop etish tadqiqotchilar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

2. San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy. – To‘raqo‘rg‘on: Matbaai Is’hoqiya, 1908-yil. Husnixat va xat-savod chiqarishga bag‘ishlangan ushbu toshbosma asar Ibratning “Matbaai Is’hoqiya”sida chop etilgan dastlabki kitobidir. Asardan savod chiqarishda, husnixat namunalarini o‘rganishda “Mufradot” darsligi sifatida foydalilanilgan. Unda husnixat namunalarini, nasta’liq xatining yozilish usullari ko‘rsatilgan. Hozirgi kunda ushbu asarning toshbosma nusxasi namanganlik manbashunos A.Ubaydulayev shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Ushbu asarni nashrga tayyorlash va Ibratning xattotlik san’atidan xalqni bahramand etish lozim.

3. Is’hoqxon Ibratning “Fiqhi Kaydoniy nazmi” asari 1908-yil Qozon shahridagi Husainov matbaasida chop etilgan. Islom dini arkonlari haqida ma’lumot beruvchi ushbu asarning toshbosma nusxasi O‘zRFA Sharqshunoslik instituti toshbosma asarlar fondida 20099, 12690, 16315 inventar raqami bilan saqlanmoqda. Asarning yana bir toshbosma nusxasi namanganlik matnshunos Ahmad Ubaydulloh shaxsiy kutubxonasida ham mavjud. Lutfulloh Nasafiy Kaydoniy (vaf. 1349)ning

arab tilida yozilgan “Fiqhi Kaydoniy” asarini Ibrat o‘zbek tiliga she’riy usulda tarjima qiladi, shuning uchun asar “Fiqhi Kaydoniy nazmi” deb atalgan. Asar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangani bois shoir uni yodlab olishga qulay etib, nazm yo‘lida tarjima qilgan. Ushbu asar 2012-yil N.Nasrullayev tomonidan kirill yozuvida nashr etildi¹. Asar 240 bayt, 29 sahifadan iborat.

4. Ilmi Ibrat. – To‘raqo‘rg‘on: Matbaai Is’hoqiya, 1909-yil. Is’hoqxon to‘ra Ibratning ushbu toshbosma asari O‘zRFA Sharqshunoslik institutida 9987 inventar raqami ostida saqlanadi. Ibrat o‘z she’rlarining kichik bir qismini to‘plib, “Ilmi Ibrat” nomi bilan nashrdan chiqaradi. To‘plamning to‘liq nomi “To‘raqo‘rg‘on qozisi Is’hoqxon to‘ra Ibratning o‘z asarlarining birinchi juz‘i Ilmi Ibrat” bo‘lib, 1327-yil hijriyda (1909-yil milodiy) Oxunzoda Abdulrauf Shahidiy muharrirligida bosmadan chiqqan. To‘plam muharrirning so‘nggi so‘zi bilan birgalikda 16 sahifadan iborat. Unda 1 ta arabcha, 3 ta forscha, 5 ta o‘zbekcha she’r mavjud. To‘plamdagi she’rlarning asosiy mazmunini shoir yashab o‘tgan tuzumdagi adolatsizlikni tanqid ostiga olish va xalqni ilm-ma’rifatga chaqirish g‘oyalari tashkil qiladi.

5. Jome’ ul-xutut. – Namangan: Matbaai Is’hoqiya, 1912-yil. Ibratning ushbu toshbosma asari O‘zRFASHI Qo‘lyozmalar fondida 621 inventar raqami ostida saqlanadi. Is’hoqxon Ibratning “Jome’ ul-xutut” (Yozuvlar majmuasi) asarida qadimgi piktografik bitiklardan ibroney, suryoniy yozuvlarigacha, sanskrit, qadimgi finikiy yozuvlaridan yunon, lotin yozuvlarigacha, hind, arman, gruzin yozuvlaridan arab, uyg‘ur yozuvlarigacha – dunyo xalqlarining jami 41 xil yozuv tizimi haqida ma’lumot berilgan. O‘scha davrda Turkistonda amalda bo‘lgan arab xatining suls, tavqi’, rayhoniy, zulf, humoyun, turra kabi shakllari to‘g‘risida, husnixat san’ati xususida fikrlar bildirilgan. Asar 132 sahifadan iborat bo‘lib, bugungi kunda “Namangan viloyat tarixi va madaniyatini o‘rganish muzeyi” arxivida ham toshbosma nusxada saqlanadi. Is’hoqxon to‘ra Ibratning 2005-yilda chop etilgan “Tanlangan asarlar”ida U.Dolimov va N.Jabborovlar tomonidan “Jome’ ul-xutut”da keltirilgan sanskrit, qadimiy finikiy, yunon, qadimiy kufiy, qadimiy yahudiy va slavyan yozuvlarining foto namunalari ilova etilgan². Ibratning “Jome’ ul-xutut” asarini nashrga tayyorlash adabiyotshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biridir.

6. “Tarixi Farg‘ona”. Is’hoqxon Ibratning ushbu asari Qo‘qon xonligida hukmronlik qilgan xonlar faoliyati, ayniqsa, Qo‘qon xonligining so‘nggi hukmdori Xudoyorxon faoliyati, qipchoq qirg‘ini voqealari, O‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi haqida yozilgan. Ibrat “Tarixi Farg‘ona” asarida Farg‘ona

¹ Каранг:Исҳоқхон тўра Ибрат. Фиқхи Кайдоний назми / Нашрга тайёрловчи: Н.Насруллаев. Т.: Movaraunnahr, 2012. – 96 б.

² Каранг: Исҳоқхон Ибрат. Танланган асарлар. –Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 15-17.

viloyati tarkibiga kirgan shahar va qishloqlarning kelib chiqish tarixi, geografik joylashuvi, tabiat haqidagi muhim ma'lumotlarni ham bayon etadi. “Tarixi Farg‘ona” asarini o‘rganish jarayonida, uning ikki qo‘lyozma varianti borligi aniqlangan. Ulug‘bek Dolimov o‘zining tadqiqot ishida asarning ikki varianti, ya’ni dastlabki va qayta ishlangan varianti borligini aytadi. Tadqiqotchi asar uch nusxada ekanligi, ya’ni ikki nusxasi O‘zRFASHI qo‘lyozmalar fondida saqlanishi, bir nusxasi esa G‘. Karimov shaxsiy kutubxonasida ekanligi haqida ma'lumot beradi³. Keyingi izlanishlar natijasida tadqiqotchi Komila Vohidova asarning ikkinchi varianti bir nusxa bo‘lib, u O‘zRFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 11080 inventar raqami ostida saqlanishi, dastlabki variantining o‘zi esa uch nusxada bo‘lib, ikki nusxasi O‘zRFASHI qo‘lyozmalar fondining 11616 hamda 10117 inventar raqami ostida saqlanishi, bir nusxasi esa G‘. Karimov shaxsiy kutubxonasida ekanligi haqida aytib o‘tadi⁴. Demak, bu ma'lumotlar Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari to‘rt nusxada bo‘lib, to‘rtinchi 10117 inventar raqamli nusxa ham tadqiqotchilarimiz nazaridan chetda qolmaganligidan dalolat beradi. Is’hoqxon to‘ra Ibrat “Farg‘ona tarixi” asarini 1916-yilda yozib tugatgan va asar nusxasini ko‘paytirish maqsadida 1921-yilda yana qayta yozadi. Asarning to‘rtinchi nusxasi Ibratning 1921-yilda yozgan varianti asosida 1374-hijriy, 1954-milodiy yili Sobitxon ibn Naimxon to‘ra tomonidan ko‘chiriladi. Tadqiqotlar natijasida Ibratning 11616 inventar raqami ostida saqlanayotgan “Tarixi Farg‘ona” asari O‘zRFASHI sahhoflari tomonidan adibning “Tarixi madaniyat” asari bilan birga muqovalanganligi ma'lum bo‘ldi.

Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari Vatanimiz tarixini o‘rganishdagi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Shu sababli asar mustaqillikdan so‘ng qayta-qayta kirill yozuvida chop etila boshlandi. Jumladan, asar 1991-yil Haydarbek Bobobekovning “Tariximizdagি qonli izlar” sarlavhali so‘zboshisi bilan chop etilgan⁵. Asar O‘zFASHI qo‘lyozmalar fondi 11616 inventar raqami ostida saqlanayotgan Inoyatxon To‘raqo‘rg‘oniy qalami bilan ko‘chirilgan nusxa asosida nashrga tayyorlangan. Ushbu nashrdagi “Farg‘ona tarixi” asaridan olingan parcha U.Dolimovning 1994-yil nashrdan chiqqan “Is’hoqxon Ibrat” kitobida hamda 1999,

³ Карапнг: Долимов У. Жизнь и творчество узбекского поэта просветителя Ибрагата: Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. кан. фил. наук. – Т.: 1971. – С.26.

⁴ Карапнг: Вохидова К. Исҳоқхон Жунайдуллоҳхўжа ўғли Ибрат ва унинг тарихий-илмий мероси: Тарих фан. номз. ... дисс. –Т., 2002. – Б.98.

⁵ Карапнг: Исҳоқхон Жунайдуллаҳхўжа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи // Мерос. Нашрға тайёрловчилар: Ҳайдарбек Бобобеков, Махмуд Ҳасаний; таҳрир ҳайъати: Бўрибой Аҳмедов, Иброҳим Ҳаккулов ва бошк. Тошкент: Камалак, 1991. – Б.266-326;

2005-yillarda chop etilgan Is'hoqxon to'ra Ibrat haqida yozilgan manbalarda ham uchraydi⁶.

7. “Mezon uz-zamon”. Is'hoqxon to'ra Ibratning ushbu asari O'zFASHI qo'lyozmalar fondida 11618 inventar raqami ostida saqlanadi. “Mezon uz-zamon” asari 1916-1925-yillar oralig‘ida nasriy usulda yaratilgan bo‘lib, asar muqaddima va to‘qqiz mezondan iborat. Adib asar boblarini mezon deb ataydi. Muqaddimada asarning yozilish sabablari va undan ko‘zlagan maqsadini bayon etadi. Avlodlarga yaxshi va yomonning, foyda va zararning, halol va xaromning farqini og‘zaki tushuntirish, balki yozib qoldirish o‘qigan kishi uchun hayot saboqlaridan bir amri ma’ruf eshitgandek foyda keltirishini ta’kidlab o‘tadi. Asarning har bir mezonida o‘tmish va bugungi hayotdagi turli muammolar, o‘zgarishlar atroflicha tahlil va talqin qilinadi. Is'hoqxon Ibratning “Mezon uz-zamon” ma’rifiy asari 2001-yil yapon va o‘zbek professorlari Xisao Komatsu va Baxtiyor Bobojonovlar tomonidan hamkorlikda Toshkent va Tokioda nashr etilgan⁷. Asarning to‘liq matni 2005-yil Toshkentda kirill yozuvida nashrdan chiqarildi⁸.

8. “Tarixi madaniyat”. Is'hoqxon Ibratning ushbu qo'lyozma asari O'zFASHI qo'lyozmalar fondida 11616 raqami ostida saqlanadi. Asar 1926-yilda yozilgan. Is'hoqxon Ibratning “Tarixi madaniyat” asari rivojlangan shaharlar qiyofasi va insonlarning madaniy turmush tarzi haqida bo‘lib, asarda adib Turkiston o‘lkasidagi shaharlarning madaniyatli shaharlar qatoriga kirishida farzandlarimizning o‘qib, ilm o‘rganishlari muhim ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Adib chet el sayohatidan olgan taassurotlari asosida o‘z yurtida madaniyatni targ‘ib etadi. Asarda yoshlarni o‘z vaqtida ilm va hunar egallashlari lozimligi uqtiriladi. Qishloqlarda ham madaniyatni rivojlantirishda ota-onalar o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish, ta’lim-tarbiyaga oid darsliklar, risolalar gazeta va jurnallar chiqarib, yoshlarning savodxonligini oshirish kabi takliflarini aytadi. Asarda adib madaniyat rivojiga, xalq kelajagiga doir ilg‘or fikrlarini bayon etgan. Asarni nashrga tayyorlab, kitobxonlarimizga taqdim etish bugungi adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

9. Is'hoqxon Ibrat hujjatlari papkasi. O'ZFASHI Qo'lyozmalar fondi. Inv. №: 11617. Is'hoqxon Ibrat she'rlari saqlangan bu manbaa 1963-yilda shoirning kenja o‘g‘li Rotibxon Is'hoqov tomonidan Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondiga topshirilgan. U shoirning hujjatlari saqlanuvchi papkadir. Undagi ba’zi varaq

⁶ Долимов У. Исҳоқхон Ибрат / Тарихи Фарғона.—Тошкент: Шарқ, 1994.—Б.110-118; Ибрат. Ажзий. Сўфизода. Танланган асарлар / Тарихи Фарғона. —Тошкент: Маънавият. 1999. —Б.69-94; Исҳоқхон тўра Ибрат. Танланган асарлар / Тарихи Фарғона. Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши, изоҳ ва лугат муаллифлари: Улугбек Долимов, Нурбой Жабборов. —Тошкент: Маънавият, 2005.—Б.79-143.

⁷Исҳоқхон тўра иби Жунайдуллоҳ хўжа. Мезон уз-замон.—Тошкент: Токио, 2001 й.

⁸ Исҳоқхон тўра Ибрат // Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши, изоҳ ва лугат муаллифлари:Улугбек Долимов, Нурбой Жабборов.—Тошкент: Маънавият, 2005. —Б.160-188.

qog‘ozlarda Ibrat she’rlari hamda shoirning katta o‘g‘li Abbosxonning yon daftarchasi mavjud bo‘lib, daftarda Muqimiy, Furqat she’rlaridan namunalar ham uchraydi.

10. Is’hoqxon Ibratning 1898 va 1900-yilda matbuot noziri N. Ostroumovga yozgan ikki maktubi. O‘zbekiston Markaziy Davlat arxivi. 1009-fond, 115-yig‘ma jild, 15-16-varaq. Arxivda Is’hoqxon Ibratning N. Ostroumov nomiga yozilgan ikki maktubi saqlanadi. Birinchi maktub 1898-yilda yozilgan bo‘lib, unda Ibrat N. Ostroumovga “Lug‘ati sitta alsina” asarini bosmadan chiqarishga yordam berishini iltimos qilib murojaat qiladi va uning taklifiga muvofiq kitobning ikki juz’ini yuboradi. Lekin ancha vaqtgacha asarni nashr qilish yoki nashr qilmaslik haqida hech qanday javob ololmaydi. Is’hoqxon Ibrat 1900-yilning 26-fevralida ikkinchi marta rus va o‘zbek tillarida xat bilan murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Mazkur asarni nashr qilinishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu xatning to‘la matni 1994-yilda Ulug‘bek Dolimov tomonidan nashrga tayyorlangan “Is’hoqxon Ibrat” kitobida qayd qilingan⁹.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining nodir qo‘lyozmalar, nodir va alohida qimmatga ega nashrlar o‘quv zalida saqlanayotgan Is’hoqxon to‘ra Ibratning XX asr boshlari vaqtli matbuot sahifalarida e’lon qilgan 30 dan ortiq tarixiy va ijtimoiy-siyosiy mazmundagi maqolalari ham shoir hayoti va ijodini o‘rganishdagi muhim manbalar sifatida e’tirof etiladi. Ibrat hayoti va ijodi haqida Po‘lotjon Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiylar” asarida ham ma’lumot berilgan. Unda Ibratni Umarxon davridagi mashhur shoirlardan biri Afsusning nabirasi ekanligi, uzoq vaqt To‘raqo‘rg‘on qozisi bo‘lib ishlagani hamda u yerda bir hammom, bog‘, yangi binolar qurdirganligi aytib o‘tilgan. Ammo Ibratning tavallud sanasi 1876-yil deb, xato ko‘rsatilgan¹⁰. Shunday bo‘lsa-da, Ibrat haqida P. Qayyumov tomonidan berilgan ma’lumotlar dastlabki nashriy manbalardan biri sifatida e’tiborga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Воҳидова К. Исҳоқхон Жунайдуллоҳхўжа ўғли Ибрат ва унинг тарихий-илмий мероси: Тарих фан. номз. ... дисс. –Т., 2002. – Б.98.
2. Tojiboyeva M. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. 2-nashri. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2017. – B. 83-94; 169-175.

⁹Долимов У. Исҳоқхон Ибрат / Тарихи Фарғона.–Тошкент: Шарқ, 1994.– Б. 21.

¹⁰Қайюмий П. Тазкираи Қайюмий / Нашрга тайёрловчи: Қаюмов А. Уч жилдлик. Жилд II. – Т.: ЎзРФА, Кўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998 . – Б. 420.

3. Қайюмий П. Тазкираи Қайюмий / Нашрга тайёрловчи: Қаюмов А. Уч жилдлик. Жилд П. – Тошкент: ЎзРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998 . – Б. 383-384.
4. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат / Тарихи Фарғона.–Тошкент: Шарқ, 1994.– Б.
5. Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Тошкент: Руҳафзо, 1998. – Б. 104-171.
5. Ибрат. Ажзий. Сўфизода. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар: Бегали Қосимов, Суннат Аҳмедов, Улугбек Долимов. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 6-99; 210-228.
6. Исҳоқхон тўра ибн Жунайдуллоҳ хўжа. Мезон уз-замон.–Тошкент: Токио, 2001 й.
7. Исҳоқхон тўра Ибрат // Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши, изоҳ ва луғат муаллифлари: Улугбек Долимов, Нурбой Жабборов.– Тошкент: Маънавият, 2005. – Б.160-188.
8. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б .292-297.
9. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 33-34; 167-181; 341-351.
10. Ҳомидий Ҳ., Маъмуроғ М. Наманган адиблари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 37-51.